UO‘K 373.5.091.33:81’36

O‘QUVCHILAR YOZMA NUTQIDAGI VERGUL BILAN BOG‘LIQ XATOLARNING EMPIRIK TAHLILI VA METALINGVISTIK TALQINI

Z.R. Rayimberdiyeva, Sh.J. Saidxonova

Maqolada 7-sinf o‘quvchilari yozma nutqidagi vergul qo‘llash bilan bog‘liq xatolar empirik asosda tahlil qilindi. O‘quvchilarga vergulsiz matn berilib, belgi qo‘yish va izohlash talab qilindi. Natijalar vergul qo‘llash kompetensiyasi turli sintaktik birliklar kesimida bir xil shakllanmaganini ko‘rsatdi. Tahlil o‘quvchilarning vergul qo‘yishda intuitiv, intonatsiyaga asoslangan strategiyalarga tayanishini, metalingvistik va sintaktik tahlil ko‘nikmalari esa yetarli darajada rivojlanmaganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *punktuatsiya, lingvodidaktika, me’yoriy yondashuv, kommunikativ yondashuv, pragmatik yondashuv, kognitiv yondashuv, diskurs, psixolingvistika, semiotika, muloqot*.

В статье представлен эмпирический анализ ошибок в употреблении запятых в письменной речи учащихся 7-го класса. В ходе исследования школьникам был предложен текст без пунктуационных знаков с заданием определить и обосновать постановку запятых. Полученные результаты свидетельствуют о неравномерной сформированности пунктуационной компетенции в зависимости от типа синтаксических конструкций и выявляют преобладание интуитивно-интонационных стратегий при недостаточной развитости метаязыковой рефлексии и навыков синтаксического анализа.

Ключевые слова: *запятая, пунктуация, письменная речь, пунктуационная компетенция, метаязыковое сознание, синтаксический анализ, учащиеся 7 класса.*

Kirish

Yozma nutqda fikrning ravon, tushunarli va ta‘sirli ifodalanishi ko‘plab lingvistik omillarga tayangan holda shakllanadi. Xususan, tinish belgilari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat gapning grammatik tuzilishini ko‘rsatadi, balki matnning mazmuniy oqimini boshqaradi, interpretatsiya uchun zarur bo‘lgan to‘xtam va ohang chegaralarini belgilaydi. Punktuatsion xatolar yozma matnning to‘g‘ri talqin qilinishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, vergul mantiqiy-mazmuniy ajratuvchi sifatida gap tarkibidagi so‘zlar va sintaktik birliklar o‘rtasidagi munosabatni belgilab, ayrim holatlarda fikrning umumiy mazmunini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Maktab amaliyotida aynan vergulning to‘g‘ri qo‘llanilishi bilan bog‘liq xatolar eng ko‘p uchraydigan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda va 7-sinf o‘quvchilarining yozma nutq kompetensiyalari ham bundan mustasno emas. Garchi amaldagi o‘quv dasturida undalma, kirish so‘z, uyushiq bo‘lak va qo‘shma gap kabi sintaktik qurilmalarni o‘rganish nazarda tutilgan bo‘lsa-da, 7-sinf o‘quvchilari ushbu birliklarni yozma matnda aniqlash va ularni vergul orqali to‘g‘ri belgilashda bir xil darajada natijaga erisha olmaydilar. Jumladan, gapning asosiy mazmuniga bilvosita aloqador bo‘lgan, biroq bevosita sintaktik munosabatga kirishmaydigan birliklar – kirish so‘zlar va undalmalar – o‘quvchilar uchun sezilarli qiyinchilik tug‘diradi. Aksincha, uyushiq bo‘laklar hamda sodda sintaktik aloqalar asosiga qurilgan qo‘shma gaplarda vergulni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha esa o‘quvchilar nisbatan barqaror ko‘nikmaga ega. Mazkur farqning yuzaga kelishi ona tili darslarida ayrim sintaktik birliklarga berilayotgan e’tibor darajasi, o‘quvchilarning nutqiy sezgisi hamda matnni tahlil qilish ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasi kabi omillar bilan izohlanishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda punktuatsiya, xususan, vergulning qo‘llanishi bilan bog‘liq xatolar dunyo lingvodidaktikasi va lingvometodikasida muhim empirik muammo sifatida keng tadqiq etilmoqda. Turli tillarda olib borilgan izlanishlar vergul xatolari nafaqat o‘quvchilar, balki talabalar va hatto malakali yozuvchilar yozma nutqida ham eng barqaror va murakkab xato turlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Jumladan, ingliz ti-

lida olib borilgan izlanishlar orasida K.R.Apuhinning tadqiqoti alohida e'tiborga molik bo'lib, unda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ingliz tili o'rganuvchilarning yozma matnlaridagi punktuatsion xatolar tahlil qilingan. Natijalarga ko'ra, vergul bilan bog'liq xatolar ustunlik qilib, jami xatolarning 77,42 foizini tashkil etgan [1. B. 3448]. Bu holat vergulni qo'llash murakkabligi, yosh va til bilish darajasidan qat'i nazar, saqlanib qolishini ko'rsatadi.

Nemis tilida o'tkazilgan tadqiqotlar ham ayni xulosani yanada mustahkamlaydi. N.Furhop va J.Romshtadt tomonidan 2021-yilda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonida yozilgan 137 ta matn ustida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, vergul bilan bog'liq xatolar orasida eng ko'p uchraydigan holat zarur vergulning tushirib qoldirilishi bo'lib, bunday xatolar soni ortiqcha qo'yilgan vergullardan bir necha barobar ko'p [2. B. 196]. Bu esa o'quvchilar atayin vergul qo'yishdan qochish strategiyasini tanlashini ko'rsatadi. Shuningdek, C.Pisnak va A.Shubel ham asosan ergash gapli qo'shma gaplarda vergul qo'yish qoidasini bilmaslik eng ko'p uchraydigan xato turi ekanligini aniqlaganlar [3. B. 64). Bu holat sintaktik tuzilmalarning murakkabligi ortgani sari o'quvchilarning punktuatsion xatolari ham mos ravishda ortib borishini ko'rsatadi. Ushbu xulosa keyingi ko'plab tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. Nemis lingvodidaktikasida vergul bilan bog'liq holatlarni tizimli ravishda tahlil qilgan muhim tadqiqotlardan biri G.Esslinger va C.Noak tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va empirik yondashuvlardir. Mualliflar odatdagi intonatsion, semantik va signal so'zlarga asoslangan metodlarni tanqid qilib, ularning vergul qo'llashni izchil o'rgatishda yetarli emasligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, yozma nutq xatolarining 46 foizi tinish belgilariga, ularning 90 foizi esa vergulga to'g'ri kelmoqda [4. B. 7]. Ular taklif etgan "lingvistik xususiyatlarga tayanuvchi, vazifaga asoslangan va o'qishga yo'naltirilgan didaktika" vergulni sintaktik segmentatsiya vositasi sifatida ongli o'zlashtirishga qaratilgan. Yana bir qiziq tadqiqot D.Betzel tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u boshlang'ich sinf o'quvchilariga vergulga oid qoidalar o'rgatilmagan bo'lsa-da, bu tinish belgidan foydalanishlarini aniqlaydi va vergulni ertaroq tizimli o'qitishni boshlash zarur ekanligini ta'kidlaydi [5. B. 48]. C.Sappok va C.Nauman esa o`z tadqiqotlarida vergul qo'yishni alohida grammatik ko'nikma emas, balki umumiy matnni segmentatsiya qilish qobiliyatining bir qismi sifatida talqin qiladi. Mualliflar vergul qo'yish jarayonini bir necha bosqichli psixolingvistik model orqali tushuntirib, o'quvchilarning ko'pincha sintaktik tahlilga emas, ichki pauza va sezgiga tayanishini ko'rsatadi [6]. Ushbu yondashuv vergul xatolarining sabablari grammatik bilim yetishmasligidan tashqari, matnni idrok etish strategiyalari bilan bog'liqligini ochib beradi.

Rus tilida olib borilgan tadqiqotlarda ham yuqorida sanalgan muammolar qayd etiladi. T.P.Malyavina punktuatsion savodxonlikning pastligini grammatik bilimlarning yuzaki o'zlashtirilishi, matnli yondashuvning sustligi va noto'g'ri shakllangan punktuatsion odatlar bilan izohlaydi. Tadqiqotchi tomonidan qo'llangan "noto'g'ri yozish ko'nikmalari" tushunchasi vergul xatolarining barqaror va takrorlanuvchi xarakterini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega [7. B. 14].

Fransuz tilidagi tadqiqotlarda ham vergulni to'g'ri qo'llashga o'rgatishning murakkabligi alohida ta'kidlanadi. Xususan, G.Dyukansel boshlang'ich sinf o'quvchilarida vergulni o'zlashtirish jarayonini tahlil qilib, o'quvchilar dastlab vergulni "nafas rostlash belgisi" sifatida tushunishini, keyinchalik esa uning sintaktik va diskursiv vazifalarini asta-sekin anglay boshlashini ko'rsatadi [8]. M.Dyufur va D.Bessonat kabi olimlar ham uzoq muddatli kuzatishlari natijasida an'anaviy "qoida-istisno" yondashuvining samaradorligi cheklanganligini e'tirof etib, o'rniga metalingvistik ongni rivojlantirish va vergulning tizimli tabiatini tushuntirishni tavsiya qilishgan [9, 10].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar vergul qo'llashdagi xatolar universal xarakterga ega ekanini, ularning sabablari esa grammatik bilimlar, sintaktik segmentatsiya, intonatsiyaga tayanish va metalingvistik ongning yetarli rivojlanmaganligi kabi omillar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yuqori sinf o'quvchilarining aniq sintaktik birliklar kesimida vergul qo'llash strategiyalarini, xususan, ularning qarorlarini izohlash orqali tahlil qilgan empirik tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Mazkur maqolada aynan shu bo'shliqni to'ldirish uchun 7-sinf o'quvchilarining vergul qo'llashdagi xatolarini maxsus tuzilgan hikoya matni asosida aniqlash va tahlil qilish maqsad qilib olindi. Matnning mazmuni o'quvchilar yosh xususiyatlariga va maktab til ta`limi dasturi talablariga mos tarzda tanlangan bo'lib, unda turli sintaktik konstruksiyalar maqsadli joylashtirilgan. O'quvchilardan vergulsiz berilgan hikoyani to'g'ri punktuatsiya qilish va har bir vergulni nima sababdan qo'yganini izohlab berish so'raldi. Ushbu yondashuv nafaqat xatolar miqdorini aniqlash, balki o'quvchi fikrlash jarayonining qanday kechganini, qoidani ongli tatbiq etish yoki tasodifiy tanlovga asoslanish kabi holatlarni ham kuzatish imkonini berdi. Tahlil natijalari o'quvchilar qaysi sintaktik tuzilmalarni osonroq o'zlashtirgani, qaysilarida ko'proq adashgani va bu xatolarning ehtimoliy sabablari haqida atroflicha tasavvur beradi. Mazkur ma'lumotlarga tayangan holda 7-sinf o'quvchilarining vergul qo'llash kompetensiyasini tahlil qilish va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatishni maqsad qildik.

Materiallar va usullar

Tadqiqot 14 yoshli 31 nafar 7-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazildi. Guruh tarkibi tasodifiy shakllantirilmagan bo‘lib, bir sinfning barcha o‘quvchilari to‘liq jalb qilindi. Bu yondashuv o‘quvchilarning umumiy punktuatsiya savodxonligini tabiiy holatda kuzatish imkonini berdi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarning oldindan tayyorlanishi yoki ularga qo‘shimcha ko‘rsatma berilishi cheklab qo‘yildi, chunki asosiy maqsad ularning real yozma malakasini aniqlash edi. Tadqiqot materiali sifatida 324 so‘zdan iborat “Yo‘qolgan mushuk” nomli hikoyadan foydalanildi. Matn maxsus tarzda vergulsiz holatga keltirilgan va unda turli punktuatsion vaziyatlarni aks ettiruvchi sintaktik birliklar atayin joylashtirilgan. Xususan, hikoyada 5 ta uyushiq bo‘lak, 4 ta kirish so‘z yoki kirish birikmasi, 3 ta undalma va 6 ta qo‘shma gap mavjud. Ushbu birliklarning matn bo‘ylab turli o‘rinlarda berilishi o‘quvchi ko‘nikmalarining qanchalik barqaror ekanini sinab ko‘rish imkonini yaratdi.

O‘quvchilarga ikki bosqichli topshiriq berildi: avvalo, matnga zarur vergullarni qo‘yish, so‘ng esa har bir belgi nima asosda qo‘yilganini qisqacha izohlash. Izoh yozish talabi o‘quvchilar tinish belgisini faqat qoida asosida mexanik qo‘llaganini emas, balki qo‘llash uchun asos bo‘lgan sintaktik birlikni anglagan-anglamaganini ham aniqlash maqsadida kiritildi. O‘quvchilar yozgan izohlar ularning punktuatsiyaga munosabati va punktuatsion qarorlarining qanday asosga tayanganini ko‘rsatib berdi.

Tahlil jarayonida har bir o‘quvchi tomonidan qo‘yilgan belgilar alohida ko‘rib chiqildi. Xatolar toifalarga ajratildi: undalma bilan bog‘liq xatolar, kirishlarning noto‘g‘ri belgilanishi, uyushiq bo‘laklardagi kamchiliklar va qo‘shma gap chegaralaridagi xatolar. Har bir toifa ichida xatolarning uchrash chastotasi hisoblab chiqildi, keyin esa umumiy ko‘rinishdagi taqsimot aniqlashtirildi. Bundan tashqari, ayrim o‘quvchilarda takrorlanayotgan xato modellari kuzatildi, bu esa ayrim punktuatsion birliklarning o‘zlashtirilish darajasi haqida qo‘shimcha tasavvur berdi. Olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy yo‘sinda ko‘rib chiqildi. Miqdoriy ko‘rsatkichlar xatolarning qaysi turdagi konstruksiyalarda ko‘proq jamlanganini aks ettiradi, sifat tahlili esa ushbu xatolarning mumkin bo‘lgan sabablarini aniqlash imkonini berdi. Tanlangan metodik yondashuv yozma faoliyat jarayonini oddiy natija darajasida emas, balki o‘quvchi fikrining borishini kuzatish orqali baholashga xizmat qildi.

Natijalar

Tajriba yakunida o‘quvchilar tomonidan jami 558 ta vergul qo‘yilishi kerak bo‘lgan holat aniqlandi. Shundan 412 ta to‘g‘ri, 146 ta noto‘g‘ri qo‘llanish qayd etildi. Xatolar turli sintaktik birliklar bo‘yicha teng taqsimlanmadi: ayrim konstruksiyalarda juda kam, boshqalarida esa ancha ko‘p xato qilindi. Bu farq o‘quvchilarning qaysi birliklarni nisbatan ongli o‘zlashtirgani, qaysi o‘rinlarda esa sintaktik anglash sust ekanini ko‘rsatdi.

Eng past xato ko‘rsatkichi uyushiq bo‘laklarga to‘g‘ri keldi. 5 ta uyushiq bo‘lak holatida o‘quvchilar jami 155 ta qaror chiqargan bo‘lib, shundan 134 tasi to‘g‘ri, 21 tasi noto‘g‘ri bo‘ldi. Bu umumiy xatolarning atigi 14,3 % ini tashkil etdi. O‘quvchilarning aksariyati bir xil vazifali bo‘laklar orasida vergul qo‘yish qoidasi bilan yaxshi tanish ekani ko‘rindi. Hatto ba’zi ishtirokchilar vergulni qo‘yishda xato qilgan bo‘lsa ham, izoh yozishda vaziyatga mos punktuatsion qoida mohiyatini to‘g‘ri qayd etgan.

Qo‘shma gaplarda ham xato kamroq uchradi. 6 ta konstruksiya bo‘yicha 186 ta qaror baholandi; shundan 151 tasi to‘g‘ri, 35 tasi noto‘g‘ri bo‘ldi. Xato ulushi 18,8% ni tashkil etdi. O‘quvchilar bog‘langan qo‘shma gap qismlarini ajratishda ancha aniq ishlagan, ammo ergash gapli qo‘shma gap qismlari segmentatsiyasida bir oz ikkilanib qolgan. Murakkab sintaktik aloqalar mavjud bo‘lgan joylarda belgi qo‘yilishidagi noaniqlik ayniqsa sezilib turdi.

Eng ko‘p xato undalma va kirish birliklarida uchradi. Undalmalarga oid 3 ta holatda 93 ta qaror ko‘rib chiqildi: 48 tasi to‘g‘ri, 45 tasi noto‘g‘ri (xato ulushi 48,3%). O‘quvchilarning bir qismi undalmani gapning bo‘lagiga tenglashtirib, uni ajratish zarurligini sezmagan. Ba’zilari undalmani intonatsiya orqali ajratish mumkinligini bilgani holda, yozma shaklda uni vergul bilan belgilashni unutib qo‘ygan. Kirish so‘z va kirish konstruksiyalarda xato yanada ko‘proq bo‘ldi. 4 ta kirish birlik bo‘yicha 124 ta qaror qayd etildi. Ulardan 79 tasi noto‘g‘ri, 45 tasi to‘g‘ri bo‘lib, xato ulushi 63,7% ga yetdi. O‘quvchilar bu birliklarni ko‘pincha gapning semantik bo‘lagi sifatida talqin qilgan, ba’zida esa hol yoki kesim bilan adashtirgan. Izohlarda “gapning ichida kelgan”, “kerak deb o‘yladim” kabi fikrlar uchragani qoidaning mohiyati yetarli tushunilmaganini ko‘rsatdi. Ayrim o‘quvchilar hech qanday izoh qoldirmagan.

Umumiy natijalarni jamlaganda, vergul qo‘llashdagi xatolar quyidagi tarzda taqsimlandi:

Konstruksiya turi	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri	Xato ulushi
Uyushiq bo‘laklar	134	21	14.3 %
Qo‘shma gaplar	151	35	18.8 %
Undalmalar	48	45	48.3 %
Kirish so‘zlar	45	79	63.7 %

Mazkur raqamlar o‘quvchilarning vergul qo‘llash kompetensiyasi teng rivojlanmaganini ko‘rsatadi. Grammatik tuzilishi aniq bo‘lgan sodda konstruksiyalarda xatolar miqdori kam, lekin mazmuniy munosabatni ifodalovchi, nutqning prosodik qatlamiga mansub birliklarda xatolar miqdori ortgan. Izohlarda uchragan ikkilanishlar esa ongli tanlov emas, sezgi yoki tasodifiy qaror asosida harakat qilingan holatlar ko‘p bo‘lganini bildiradi.

Muhokama

Mazkur tadqiqot natijalari 7-sinf o‘quvchilarining vergul qo‘llash jarayoni, asosan, intuitiv va intonatsiyaga asoslangan strategiyalar orqali amalga oshayotganini, sintaktik va metalingvistik tahlil esa yetarlicha barqaror shakllanmaganini ko‘rsatdi. Empirik ma’lumotlar nazariy adabiyotlarda qayd etilgan bir qator lingvodidaktik va psixolingvistik qarashlarni tasdiqlaydi hamda ularni maktab amaliyoti misolida oydinlashtiradi.

Eng avvalo, kirish so‘zlar (63,7%) va undalmalardagi (48,3%) xatolar ulushining yuqoriligi o‘quvchilar uchun ushbu birliklar gapning sintaktik tuzilishida boshqa bo‘laklar bilan grammatik munosabatga kirishmasligini anglash murakkablik tug‘dirayotganini ko‘rsatadi. Bu holat G.Dyukansel tomonidan ta’riflangan boshlang‘ich bosqichdagi punktuatsion ong xususiyatlari bilan mos keladi. Tadqiqotchi ta’kidlaganidek, o‘quvchilar dastlab vergulni sintaktik belgi emas, balki “nafas rostlash” yoki subyektiv pauza belgisi sifatida idrok etadilar. Bizning tadqiqotimizda ham o‘quvchilarning izohlarida tez-tez uchragan “pauza borligi uchun vergul qo‘ydim” kabi iqrorlar aynan shu intonatsion talqin bosqichi hali-hanuz saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

C.Sappok va C.Nauman tomonidan ilgari surilgan psixolingvistik model nuqtayi nazaridan qaralganda, o‘quvchilarning vergul qo‘yish qarorlari ko‘pincha sintaktik tahlil emas, balki ichki nutq jarayonida sezilgan pauzaga tayanib qabul qilingan. Tadqiqot natijalari bu modelni qisman tasdiqlaydi, ya’ni uyushiq bo‘laklarda xatolarning nisbatan kamligi (14,3 %) intonatsiya va sintaktik chegaralar mos kelgan holatlarda intuitiv strategiya samarali bo‘lishi mumkinligini aks ettiradi. Biroq kirish birliklari va undalmalarda bunday moslik yo‘qligi sababli pauzaga tayanish noto‘g‘ri qarorlarga olib kelgan. Mazkur holat vergul qo‘yish qoidalarini to‘xtam bilan bog‘lab o‘qitish o‘quvchilarda “noto‘g‘ri yozish ko‘nikmalari”ning shakllanishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatadi.

Qo‘shma gaplarda kuzatilgan vergulga oid xatolar miqdoran yuqori bo‘lmasa-da, ularning tabiati metodik jihatdan muhim muammoni ochib beradi. Ma’lumki, qo‘shma gaplar murakkab sintaktik tuzilma bo‘lgani sababli ularda xatoga yo‘l qo‘yish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Shunga qaramay, o‘quvchilar mazkur holatlarda nisbatan kam xato qilgan va izohlarida vergulning qo‘llanishini “bog‘lovchi borligi” bilan asoslaganlar. Bu holat G.Esslinger va C.Noak tomonidan tanqid qilingan “signal so‘zlar”-ga tayangan yondashuvning maktab amaliyotida hanuzgacha ustun ekanini ko‘rsatadi. Aslida esa vergul qo‘shma gaplarda bog‘lovchining mavjudligi bilan emas, balki predikativ birliklar chegarasini belgilovchi sintaktik segmentatsiya vositasi sifatida qo‘llanadi. *Ammo, lekin, chunki, negak*i kabi bog‘lovchilardan oldin qo‘llanadigan vergul mazkur birliklarning talabi bilan emas, balki qo‘shma gap qismlarini yoki uyushiq bo‘laklarni ajratish zarurati bilan bog‘liqdir. Shunga qaramay, B.Baxriddinova tomonidan to‘g‘ri ta’kidlanganidek, ona tili ta’limida morfologik birliklarni o‘qitish jarayonida tinish belgilariga doir qoidalarning bog‘lovchilar bilan bevosita bog‘lab talqin qilinishi o‘quvchilarda vergulni signal so‘zga tayangan holda qo‘llash odatini shakllantirmoqda [11. B. 14]. Natijada o‘quvchilar sintaktik tuzilmaning ichki mantiqiy-semantik va predikativ chegaralarini aniqlashdan ko‘ra, tashqi shakliy belgiga tayanib qaror qabul qilmoqda. Bu esa qo‘shma gaplarda vergulning asl vazifasini – sintaktik bo‘linishni ifodalovchi vosita sifatidagi mohiyatini anglash jarayonini cheklaydi hamda sintaktik tuzilmani ongli tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganidan dalolat beradi.

Empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda vergul qo‘llash bo‘yicha uchta asosiy muammo tizimli tarzda namoyon bo‘lmoqda:

1) intonatsiyaga haddan ortiq tayanish;

2) kirish va undalmalarning funksional-sintaktik maqomini anglamaslik;

3) qo‘shma gaplarda sintaktik segmentatsiyani izchil mezonlar asosida amalga oshira olmaslik.

Sanab o‘tilgan muammolar, M.Dyufur va D.Bessonat tomonidan qayd etilganidek, an’anaviy me’yorga asoslangan yondashuvning cheklanganligi bilan ham bog‘liq. O‘quvchilar qoidani yod olgan bo‘lsa-da, uni real yozma vaziyatda ongli va izchil tatbiq eta olmayapti. Tadqiqot natijalari metalingvistik ongni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, mazkur tadqiqot empirik asosda shuni ko‘rsatadiki, intuitiv va intonatsiyaga asoslangan vergul qo‘llash strategiyasi faqat sintaktik va prosodik chegaralar mos tushgan hollardagina samarali bo‘ladi. Metalingvistik ajratish talab etiladigan birliklarda esa bunday yondashuv yetarli emas va xatolarning ko‘payishiga olib keladi. Bu xulosa punktuatsiyani o‘qitishda sintaktik segmentatsiyani ongli anglashga qaratilgan metodik yechimlarni ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tadqiqot cheklovlari

Tadqiqot 31 nafar o‘quvchi bilan chegaralanganligi va bitta matn asosida o‘tkazilganligi natijalarning umumlashtirilishiga cheklovlar qo‘yadi. Kelajakdagi tadqiqotlar turli yosh guruhlari va turli xil matnlar bilan kengaytirilishi mumkin.

Xulosalar

Mazkur tadqiqot 7-sinf o‘quvchilarining vergul qo‘llash kompetensiyasi bir xil darajada shakllanmaganini empirik asosda ko‘rsatdi. O‘quvchilar sintaktik tuzilishi aniq va intonatsiya bilan mos keluvchi birliklarda nisbatan barqaror natija ko‘rsatgan bo‘lsa, metalingvistik ajratish talab etiladigan sintaktik birliklarda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelgan. Bu holat vergulni o‘zlashtirish jarayoni faqat qoidalarni bilish bilan emas, balki ularni ongli ravishda sintaktik va funksional tahlil qila olish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi. Xususan, empirik natijalar o‘quvchilarning vergul qo‘yish qarorlari ko‘pincha intuitiv va intonatsiyaga asoslangan strategiyalar orqali qabul qilinishini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv uyushiq bo‘laklar kabi intonatsion va sintaktik chegaralar mos keladigan konstruksiyalarda nisbatan samarali bo‘lsa-da, kirish so‘zlar va undalmalarda yuqori xato ko‘rsatkichlariga olib kelgan. Bu esa o‘quvchilarda ushbu birliklar gap bo‘laklarining sintaktik aloqa tuzilishidan tashqarida joylashganligi haqidagi metalingvistik tasavvur yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi.

Tadqiqot qo‘shma gaplarda ham vergul qo‘llash jarayoni aksar hollarda yuzaki belgilar, xususan, bog‘lovchilarning mavjudligiga tayanib izohlanishini ko‘rsatdi. Bu holat o‘quvchilarda predikativ birliklar chegarasini aniqlashga asoslangan sintaktik segmentatsiya ko‘nikmasi barqaror emasligini anglatadi. Natijalar vergulni faqat intonatsion yoki shakliy signal sifatida talqin qilish emas, balki uni sintaktik munosabatlarni ifodalovchi tizimli belgi sifatida o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi.

Nazariy va empirik tahlilning integratsiyasi shuni ko‘rsatadiki, vergul qo‘llashdagi xatolar faqat grammatik bilim yetishmasligi bilan izohlanmaydi, balki o‘quvchilarning matnni idrok etish va segmentatsiya qilish strategiyalari bilan ham bevosita bog‘liq. Intuitiv pauza strategiyasi sintaktik tahlil bilan qo‘llab-quvvatlanmagan hollarda barqaror va ongli punktuatsion ko‘nikma shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu bois punktuatsiyani o‘qitishda an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanmasdan, metalingvistik ongni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yechimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kirishlar va undalmalarning funksional maqomini ochib beruvchi izohlash, farqlash va solishtirishga asoslangan mashqlar, shuningdek, qo‘shma gaplarda sintaktik segmentatsiyani ongli ravishda aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning vergul qo‘llash kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Umuman olganda, mazkur tadqiqot vergul qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning mexanizmini ochib berishi, nazariy qarashlarni empirik ma’lumotlar bilan asoslab berishi hamda punktuatsiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun muhim ilmiy va amaliy asos yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. *Apuhin K.R.P., Arnaiz A.A.D., Bayon-on E.M.M., Deita C.J.D., Dequino A.S.B., Lee A.M.I., Magbanua R.A., & Montecastro S.M.A*. Analytical study on punctuation errors in the persuasive writing of English language learners // International Journal of Social Science and Human Research. – 2023. 6(6). – Pp. 3439–3451.

2. *Fuhrhop N., Romstadt J*. Orthographiefehler im Abitur – Eine sprachwissenschaft liche Bestandsaufnahme. / In: Kepser M./Schallenberger, S./Müller, H.-G. (Hrsg.): Neue Wege des Orthographieerwerbs. Forschung – Vermittlung – Reflexion. Wien: Lemberger, 2021. – Pp. 189–208.

3. *Pießnack C., Schübel A*. Untersuchungen zur orthographischen Kompetenz von Abiturientinnen und Abiturienten im Land Brandenburg. / In: Giest, H. (Hrsg.): LLF Berichte 20. – Potsdam: Universitätsverlag, 2005. – Pp. 50–72.

4. *Esslinger G., & Noack C*. Das Komma und seine Didaktik (Bd. 1). Sprachlich-Literarisches Lernen und Deutschdidaktik: Einführungen. Schneider Verlag Hohengehren. 2020. – 112 p.

5. *Betzel D.* Kommasetzung in Texten von Grundschulkindern [Comma placement in texts of elementary school children. // Didaktik Deutsch. – 2023. 28(55). – Pp. 39–58.

6. *Sappok C., & Naumann C.L.* Die ‚Kommabrille' – historische, psycholinguistische und didaktische Perspektiven. // Didaktik Deutsch, (Special issue). 2016. – Pp. 1–26.

7. *Малявина Т.П.* Коррекция орфографических и пунктуационных умений и навыков старшеклассников как средство повышения уровня правописной грамотности: Автореф. дисс. … д-ра пед. наук. – Москва, 2011. – 51 с.

8. *Ducancel G*. Savoir ponctuer et savoirs sur la ponctuation. L'exemple du point, de la virgule, du point-virgule au CE1. / In: Repères pour la rénovation de l'enseignement du français. – 1988. No 75. Orthographe: quels problèmes? sous la direction de Gilbert Ducancel. – Pp. 37–46.

9. *Bessonnat D*. Enseigner la... «ponctuation» ? (!). / In: Pratiques: linguistique, littérature, didactique. – 1991. No 70. – Pp. 9–45.

10. *Dufour M.P*. Elements de reflexion sur l'enseignement de la ponctuation. // Correspondance. – 2017. 22(5). – Pp. 1–7.

11. *Baxriddinova B.* Ona tili ta'limida tinish belgilarini o'qitish muammolari // Zamonaviy o'zbek tili. – 2023. – №2. – B.11–16.

EMPIRICAL ANALYSIS AND METALINGUISTIC INTERPRETATION OF PUNCTUATION ERRORS IN STUDENTS' WRITTEN SPEECH

Zulfiya R. Rayimberdiyeva[1], Shokhidaxon J. Saidkhonova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2025. 6(90). 31-38

[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, 170100, str. Dostlik, 4. (Uzbekistan). E-mail: andupi@edu.uz

Key words: *comma, punctuation, written discourse, metalinguistic awareness, syntactic segmentation, seventh-grade students.*

The correct use of punctuation marks in written discourse is one of the crucial factors ensuring the logical coherence, semantic clarity, and communicative effectiveness of a text. In particular, the comma plays a fundamental role in marking syntactic relations, separating sentence parts, and clarifying semantic boundaries. However, in school practice, specifically in the written work of seventh-grade students, errors related to comma usage persist as a consistent problem.

This thesis aims to empirically analyze the comma usage competence of seventh-grade students and to explain the identified errors based on a metallinguistic approach. The research was conducted with the participation of 31 seventh-grade students. As experimental material, a specially compiled 324-word story text, stripped of commas, was used. The text purposefully included parenthetical phrases, introductory words, interjections, and compound sentences. Students were asked to insert the necessary commas into the text and briefly explain the reason for placing each mark.

This methodological approach allowed for identifying not only the students' correct or incorrect deci-

sions but also the thinking strategies they employed during the comma placement process. During the analysis, a total of 558 instances requiring commas were recorded, of which 412 were used correctly and 146 incorrectly.

The results indicate that comma usage competence is not uniformly developed across different syntactic units. The lowest error rates were observed in parenthetical phrases (14.3%) and simple compound sentences (18.8%). This suggests that in constructions where intonation and syntactic division relatively coincide, students can intuitively make correct decisions. Conversely, the high proportion of errors with introductory words (63.7%) and interjections (48.3%) indicates insufficiently developed metallinguistic understanding of these units being located outside the core sentence structure.

Analysis of the students' explanations revealed that comma placement was primarily based on reliance on intonation and a sense of internal pause. Explanations such as "There's a pause here" or "It's read that way" confirm that students rely more on intuitive strategies rather than syntactic analysis. This aligns with the inner-speech-based decision-making model noted in psycholinguistic research.

In conclusion, the research results demonstrate that difficulties with comma usage are not limited to a lack of knowledge of grammatical rules but are closely linked to students' strategies for perceiving and segmenting text. Therefore, in teaching punctuation, alongside the traditional rule-centered approach, it is necessary to more widely implement exercises based on explanation, comparison, and syntactic analysis aimed at developing metallinguistic awareness. The findings of this research serve as an important scientific and practical foundation for developing methodological approaches aimed at the conscious acquisition of comma usage.

References:

1. Apuhin, K.R.P., Arnaiz, A.A.D., Bayon-on, E.M.M., Deita,C.J.D., Dequino. (et.al.) (2023). Analytical study on punctuation errors in the persuasive writing of English language learners. *International Journal of Social Science and Human Research*. 6(6). Pp. 3439-3451.

2. Fuhrhop, N., & Romstadt, J. (2021). Orthographiefehler im Abitur – Eine sprachwissenschaft liche Bestandsaufnahme [Orthography errors in the Abitur: A linguistic survey]. In: Kepser M., Schallenberger, S., & H.-G. Müller (eds.). New pathways in the acquisition of orthography: Research – instruction – reflection. [Neue Wege des Orthographieerwerbs. Forschung – Vermittlung – Reflexion]. Vienna: Lemberger. Pp. 189-208.

3. Pießnack, C., & Schübel, A. (2005). Studies on the orthographic competence of Abitur graduates in the state of Brandenburg [Untersuchungen zur orthographischen Kompetenz von Abiturientinnen und Abiturienten im Land Brandenburg]. In: H.Giest (ed.) LLF Reports. Vol. 20. Pp. 50-72. Potsdam: Potsdam University Press.

4. Esslinger, G., & Noack, C. (2020). Das Komma und seine Didaktik (Bd. 1). Sprachlich-Literarisches Lernen und Deutschdidaktik: Einführungen. Schneider Verlag Hohengehren. [The comma and its didactics. Vol. 1. Linguistic-Literary Learning and German Didactics: Introductions. Schneider Verlag Hohengehren].

5. Betzel, D. (2023). Kommasetzung in Texten von Grundschulkindern [Comma placement in texts of elementary school children]. *Didaktik Deutsch*. 28(55). Pp. 39-58.

6. Sappok, C., & Naumann, C. L. (2015). Die, Kommabrille' – historische, psycholinguistische und didaktische Perspektiven [The 'comma glasses' - historical, psycholinguistic and didactic perspectives]. *Didaktik Deutsch*. (Special issue). Pp. 1-26.

7. Malyavina, T.P. (2011). Korrekciya orfograficheskih i punktuacionnyh umenij i navykov starsheklassnikov kak sredstvo povysheniya urovnya pravopisnoj gramotnosti [Correction of orthographic and punctuation skills of senior secondary school students as a means of increasing spelling literacy]. Abstract of Doctoral Dissertation in Pedagogical Sciences. Moscow.

8. Ducancel, G. (1988). Savoir ponctuer et savoirs sur la ponctuation. L'exemple du point, de la virgule, du point-virgule au CE1 [Knowing how to punctuate and knowledge about punctuation: The example of the period, comma, and semicolon in CE1]. In: G.Ducancel (ed.), Orthography: What problems? Repères pour la rénovation de l'enseignement du français. No 75. 37- 46.

9. Bessonnat, D. (1991). Enseigner la... «ponctuation» ? (!). / In: Pratiques: linguistique, littérature, didactique [Teaching… "punctuation"? (!) Pratiques: Linguistics, Literature, Didactics]. No 70. 9-45.

10. Dufour, M.P. (2017). Elements de reflexion sur l'enseignement de la ponctuatio [Elements of reflection on the teaching of punctuation]. *Correspondance.* 22(5). 1-7.

11. Baxriddinova, B. (2023). Ona tili ta'limida tinish belgilarini o'qitish muammolari [Problems of teaching punctuation in mother tongue education]. *Zamonaviy o'zbek tili*. No 2. Pp.11-16.

Mualliflar haqida ma'lumot:

RAYIMBERDIYEVA Zulfiya Rahmonberdiyevna – Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: zrayimberdiyeva@gmail.com

SAIDXONOVA Shohidaxon Jaloliddinovna – Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori. E-mail: shyusupova@gmail.com